

**ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA ZAMONAVIY AXBOROT
TEKNOLOGIYALARINI JORIY ETISH****Melikulov Nurjov Latifovich***O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti**Kasbiy tayyorgarlik fakulteti Maxsus fanlar sikli o‘qituvchisi**Tel: 77 269 27 72*

Annotatsiya. Ichki ishlar organlarining raqamli ekotizimini zamon talablariga mutanosib ravishda maqsadli raqamli echimlar asosida yangi bosqichga olib chiqish, jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasiga sun'iy intellekt texnologiyalarini keng tatbiq etish haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Axborot infratuzilmasi, axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari, ma'lumotlarni qayta ishlash markazlari, sun'iy intellekt texnologiyalari, raqamli texnologiyalar, yagona boshqaruv tizimi, yuqori malaka va intellektual salohiyat.

Аннотация. Была представлена информация о выводе цифровой экосистемы органов внутренних дел на новый уровень на основе целенаправленных цифровых решений, соответствующих требованиям времени, а также о широком применении технологий искусственного интеллекта в сфере обеспечения общественной безопасности и борьбы с преступностью.

Ключевые слова: Информационная инфраструктура, информационные системы, базы данных, центры обработки данных, технологии искусственного интеллекта, цифровые технологии, единая система управления, высокая квалификация и интеллектуальный потенциал.

Annotation. Information was presented on taking the digital ecosystem of internal affairs agencies to a new level based on targeted digital solutions that meet the demands of the times, as well as on the widespread use of artificial intelligence technologies in the field of public safety and crime prevention.

Keywords: Information infrastructure, information systems, databases, data processing centers, artificial intelligence technologies, digital technologies, unified management system, high qualifications and intellectual potential.

Hozirgi globallashtirish va raqamlashtirish jarayonlari jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib borib, davlat boshqaruvi tizimini ham tubdan takomillashtirishni talab etmoqda. Ayniqsa, ichki ishlar organlari faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish

xavfsizlikni ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish va jamoat tartibini saqlash samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

So‘nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash, tahlil qilish va ular asosida oqilona qarorlar qabul qilish imkoniyatlari kengaydi. Bu esa ichki ishlar organlari faoliyatida raqamli echimlar, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari, sun’iy intellekt va “katta ma’lumotlar” texnologiyalaridan foydalanish zaruratini kuchaytirmoqda.

Shu bilan birga, ichki ishlar organlarida axborot texnologiyalarini joriy etish faqat texnik yangilanish bilan cheklanib qolmasdan, boshqaruv usullarini modernizatsiya qilish, kadrlar salohiyatini oshirish, axborot xavfsizligini ta’minlash va huquqiy bazani takomillashtirish kabi masalalarni ham o‘z ichiga oladi. Bu jarayonlarni kompleks va tizimli ravishda amalga oshirish orqali sohada ochiqlik, shaffoflik va samaradorlikni ta’minlash mumkin.

Ichki ishlar organlarining raqamli ekotizimini zamon talablariga mutanosib ravishda maqsadli raqamli echimlar asosida yangi bosqichga olib chiqish, jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasiga sun’iy intellekt texnologiyalarini keng tatbiq etish, «markaz — hudud — mahalla» yagona texnologik yondashuvini joriy etish va axborot makonida raqamlashtirish jarayonlari natijadorligini yanada oshirish maqsadida ichki ishlar organlari tizimini 2025 — 2027-yillarda raqamli transformatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi.

Jumladan, ichki ishlar organlarining barcha axborot infratuzilmasini, xususan, axborot tizimlari, ma’lumotlar bazalari va ma’lumotlarni qayta ishlash markazlarini sun’iy intellekt texnologiyalari asosida yagona tizimga birlashtirgan holda jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi faoliyati samaradorligini yanada oshirish.

Ichki ishlar organlari sohasiga raqamli texnologiyalarni joriy etishga mas’ul bo‘linmalarning faoliyatini yagona boshqaruv tizimi va ishlash mexanizmlari asosida muvofiqlashtirish, ular tarkibida yuqori malaka va intellektual salohiyatga ega mutaxassislardan iborat bo‘lgan «raqamli jamoa»ni shakllantirish.

Jinoyatlar va ma’muriy huquqbuzarliklar statistikasini inson omilisiz yuritish, kriminogen vaziyat va jinoyatchilik holatini, shu jumladan, hududlar va huquqbuzarliklar turlari kesimidagi tahlillarni avtomatlashtirish.

Huquqiy statistika va tezkor-hisob ma’lumotlarini agregatsiya qilish, qayta ishlash va ulardan foydalanish jarayonini to‘liq raqamlashtirish, shuningdek, ichki ishlar organlari tizimida axborot xavfsizligi samaradorligini zamon talablariga mos ravishda ta’minlash vazifalari yuklatildi.

Raqamlashtirish va axborot xavfsizligini ta’minlashda yagona boshqaruv mexanizmi orqali ichki ishlar vazirligi Axborot texnologiyalari, aloqa va axborotni himoyalash

boshqarmasi, Huquqiy statistika va tezkor-hisob ma'lumotlar bosh markazi hamda ularning hududiy bo'linmalari negizida Ichki ishlar vazirligi Raqamli texnologiyalar va huquqiy statistika departamenti va uning hududiy bo'linmalari tashkil etilib, ularning zimmasiga quyidagi asosiy vazifalar yuklandi.

Ichki ishlar organlari faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etishda yagona texnologik yondashuvni ta'minlash hamda ushbu vazifalarni bajarishda barcha bo'linmalarning muvofiqlashtirilgan faoliyatini tashkil etish va nazorat qilib borish.

Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan echimlarni tatbiq etish.

Ichki ishlar organlarining axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya infratuzilmalarini rivojlantirish hamda texnik qo'llab-quvvatlash, shuningdek, barcha axborot tizimlari, dasturiy ta'minotlar va ma'lumotlar bazalarida axborot xavfsizligini ta'minlash, xavflarni tahlil qilib borish.

Ichki ishlar organlari tomonidan ko'rsatilayotgan elektron davlat xizmatlarini takomillashtirish, ularning sifatini oshirish hamda foydalanuvchilar uchun qulayliklarni kengaytirish.

Raqamli texnologiyalar yordamida huquqiy statistika hamda maxsus hisob ma'lumotlarini jamlash, saqlash va yuritish, integrallashgan ma'lumotlar banki faoliyatini ta'minlash, shuningdek, arxiv hujjatlarining markazlashgan hisobini yuritish vazifalari yuklatildi.

Sinov tariqasida Toshkent shahri va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari tuzilmalarida Ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari - Raqamli texnologiyalar va huquqiy statistika xizmati boshlig'i lavozimi joriy etilib hamda tumanlararo raqamli texnologiyalar bo'linmalari faoliyati yo'lga qo'yilishi belgilab berildi va kelgusida 2026-yil 1-mayga qadar respublikaning boshqa hududlarida ham ushbu amaliyotni bosqichma-bosqich davom ettirish masalasini tahlillar asosida ko'rib chiqish vazifasi Ichki ishlar vazirligi Raqamli texnologiyalar va huquqiy statistika departamentiga yuklatildi.

Ichki ishlar organlarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish orqali, Ichki ishlar vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalariga nomzodlarni qabul qilish, o'quv jarayonini elektron shaklga o'tkazish va doimiy monitoring qilib borish bo'yicha «E-kadr» tizimini takomillashtirish orqali «Raqamli ta'lim» platformasini yaratish.

Ichki ishlar organlarining faoliyatiga ovoz asosida shaxsni identifikatsiya qilish imkonini beradigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish.

Ichki ishlar organlarida tashqi va ichki integratsiyalarni yagona nuqta orqali amalga oshirish bo'yicha Ichki ishlar vazirligining «Integratsion shlyuzi» tizimini joriy etish.

Ichki ishlar organlarida mavjud barcha texnik vositalarning hisobini yuritish bo‘yicha «Raqamli texnik hisob» axborot tizimini yaratish.

Raqamli texnologiyalar sohasida jismoniy va yuridik shaxslarga shartnoma asosida ko‘rsatiladigan pulli xizmatlar ro‘yxatini tasdiqlash zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish orqali amalga oshiriladi.

Ichki ishlar organlarida raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish orqali, ichki ishlar vazirligi ma‘lumotlarni qayta ishlash yagona markazini tashkil etish, bunda ma‘lumotlarni qayta ishlash yagona markazini qo‘riqlanadigan ob‘ektlar binolarida joylashtirish choralari ko‘rish, ichki ishlar organlari tarmoqlarini modernizatsiyalash, hududiy ichki ishlar organlari bilan doimiy aloqani ta‘minlash uchun raqamli trunk radioaloqa tizimini yanada takomillashtirib boriladi.

Raqamli infratuzilmaning axborot xavfsizligini ta‘minlash, ma‘lumotlarni himoyalash va tahdidlarning oldini olish borasida ichki ishlar vazirligining tarkibiy va hududiy tuzilmalarida axborot xavfsizligiga tahdid bilan bog‘liq holatlarni aniqlash va ularni bartaraf etish, ma‘lumotlar chiqib ketishining oldini olishni monitoring qilish kompleks tizimlarini joriy etish va ichki ishlar organlari tizimida foydalanuvchilar ishchi stansiyalarida axborot xavfsizligi tahdidlaridan himoyalash tizimlarini joriy etish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo‘yicha vazifalar yuklatilgan.

Raqamli transformatsiya jarayonida hamkorlik va iste‘dodli yoshlarning startap loyihalarini qo‘llab-quvvatlash borasida ichki ishlar vazirligi raqamli texnologiyalar vazirligi bilan hamkorlikda ichki ishlar organlari tizimida 2025 — 2027 yillarda raqamli transformatsiya jarayonlarini samarali tashkil etish va amalga oshirishda Departament va uning hududiy bo‘linmalariga har tomonlama amaliy yordam ko‘rsatish maqsadida ichki ishlar vazirligi huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan raqamli loyihalar ofisi faoliyatini yo‘lga qo‘yish, bu orqali raqamli texnologiyalar vazirligi raqamli loyihalar ofisiga tegishli malakali ekspert va mutaxassislarni biriktirish, o‘z imkoniyat va resurslari bilan ichki ishlar organlariga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, xodimlarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish va axborot xavfsizligini ta‘minlash borasida tashkiliy-texnik jihatdan amaliy yordam ko‘rsatib borish va sun‘iy intellekt texnologiyalarini tatbiq etish bo‘yicha ustuvor loyihalarni to‘laqonli amalga oshirishda har tomonlama ko‘maklashib boradi.

Ichki ishlar vazirligi Raqamli texnologiyalar va huquqiy statistika departamenti va uning hududiy bo‘linmalariga ichki ishlar vazirligining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan bozor kon‘yunkturasi kelib chiqqan holda raqamli texnologiyalar sohasida malakali mutaxassislarni shartnoma asosida jalb etish, jamoat xavfsizligini ta‘minlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida

dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki (IT-park) va uning hududiy filiallari rezidentlarini ilg‘or startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun akseleratsiya va inkubatsiya dasturlariga hamda startap studiyalarga Birlashgan Arab Amirliklari tajribasi asosida jalb etib borish, akseleratsiya va inkubatsiya dasturlariga hamda startap studiyalar tashkil etish uchun ichki ishlar vazirligi balansidagi binolarni ajratish va mavjud muammolarni bartaraf etishga mo‘ljallangan startap loyihalarni yaratish maqsadida iqtidorli yoshlarni jalb etgan holda xakatonlar tashkil etilishi kelgusida ichki ishlar organlari tizimini raqamli transformatsiya qilish jarayonlari, ustuvor loyihalarning o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida qo‘yidagilarni keltirib o‘tishimiz mumkin, ichki ishlar organlari faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali joriy etish maqsadida ichki ishlar organlarida yagona integratsiyalashgan axborot tizimini yaratish va barcha bo‘linmalar o‘rtasida ma‘lumotlar almashinuvini avtomatlashtirish orqali tezkorlik va aniqlikni ta‘minlashga xizmat qilishi, jinoyatchilikka qarshi kurashishda sun‘iy intellekt, “katta ma‘lumotlar” va tahliliy platformalardan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yishni, xodimlarning raqamli ko‘nikmalarini oshirish maqsadida muntazam ravishda malaka oshirish kurslari va treninglar tashkil etib borishni, axborot xavfsizligini ta‘minlashni kuchaytirish, kibernetika xavfsizlik bo‘yicha zamonaviy vositalarni joriy etish va ma‘lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini muntazam ravishda takomillashtirib borish, aholi bilan muloqotni yaxshilash maqsadida elektron xizmatlar, mobil ilovalar va onlayn murojaat platformalarini kengaytirish va ichki ishlar organlari faoliyatida raqamlashtirish jarayonlarini huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar organlari faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish orqali jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini takomillashtirish, jamoat xavfsizligini ta‘minlash va boshqaruv samaradorligini oshirishga, shu bilan birga, mazkur jarayon kompleks yondashuvni talab etadi. Ya‘ni texnik infratuzilmani rivojlantirish bilan bir qatorda, kadrlar salohiyatini oshirishga, axborot xavfsizligini ta‘minlash va huquqiy asoslarni mustahkamlashga va ichki ishlar organlari faoliyatini yangi bosqichga olib hiqishga, aholi ishonchini mustahkamlashga va jamiyatda barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – T., 2021. – Lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-prosessual kodeksi. – T., 2021. – Lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. – T., 2021. – Lex.uz.
5. SH.M. Mirziyoev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T., “O‘zbekiston”, 2017;
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlari tizimini raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 2025-yil 30-apreldagi PQ-155-son qarori.